



"OILA VA XOTIN-QIZLAR" ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

# MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA

xalqaro ilmiy jurnalı

*Society, Gender and Family in  
Central Asia*  
international academic peer reviewed journal

*Общество, гендер и семья в  
Центральной Азии*  
международный научный рецензируемый журнал

**2024/1 (10)**

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2021-yil 18-iyundagi 0996-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma”si olingan.

*Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar RO‘YXATI (2019)ga pedagogika, psixologiya, tarix va falsafa fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun ilmiy maqolalar e’lon qilinishi mumkin bo‘lgan jurnal sifatida ro‘yxatga olingan.*

**DOI: 26739/2118-9998**

### TAHRIR HAY'ATI RAISI:

**EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna** (*Bosh muharrir*) – pedagogika fanlari doktori, professor.

### TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

**NARBAYEVA Tanzila Kamalovna** – sotsiologiya fanlari doktori, professor.

**SAIDOVA Galina Karimovna** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

**SHOUMAROV G'ayrat Baxramovich** – psixologiya fanlari doktori, professor.

**ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich** (*Bosh muharrir o'rinnbosari*) – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

**BEKMURADOV Adham Sharipovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

**MA'RUFובה Gulnora Mahmudovna** – Oly Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi a'zosi, senator.

**MUSURMANOVA Aynisa Musurmanova** – pedagogika fanlari doktori, professor.

**RAHIMOVA Nigina Xayrullayevna** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

**SAIDOV Akmal Xolmatovich** – yuridik fanlari doktori, professor.

**YAKUBJANOVA Dilobar Batirovna** – pedagogika fanlari doktori, dotsent.

**TASHMUXAMEDOVA Diloram Gafurjanovna** – tibbiyot fanlari nomzodi.

**UMIRZAKOV Baxodir Xamidovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

**ZIYAYEV Azamat Xamidovich** – tarix fanlari doktori, professor.

**ABDUSAMATOV Xasanboy Usmonjon o'g'li** – psixologiya fanlari doktori.

**TO'RAQULOV Ulug'bek Xolbutayevich** – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (*PhD*)

### ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

**Эгамбердиева Нодира Мелибаевна** (*Главный редактор*) – доктор педагогических наук, профессор.

### ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

**Нарбаева Танзила Камаловна** – доктор социологических наук, профессор.

**Сайдова Галина Каримовна** – доктор экономических наук, профессор.

**Шоумаров Гайрат Бахрамович** – доктор психологических наук, профессор.

**Абдураманов Хамид Худайбергенович** (*Заместитель главного редактора*) – доктор экономических наук, профессор.

**Бекмуратов Адхам Шарипович** – доктор экономических наук, профессор.

**Маъруфова Гулнора Махмудовна** – сенатор, член Комитета Сената Олий Мажлиса по вопросам женщин и гендерного равенства.

**Мусурманова Айниса Мусурмановна** – доктор педагогических наук, профессор.

**Рахимова Нигина Хайруллаевна** – доктор экономических наук, профессор.

**Сайдов Акmal Xolmatovich** – доктор юридических наук, профессор.

**Якубжанова Dilobar Batirovna** – доктор педагогических наук, доцент.

**Ташмухамедова Diloram Ghafurjanovna** – кандидат медицинских наук.

**Умирзаков Bakhodir Khamidovich** – доктор экономических наук, профессор.

**Зияев Azamat Khamidovich** – доктор исторических наук, профессор.

**Абдусаматов Xasanboy Usmonjon ugli** – доктор психологических наук.

**Turakulov Ulugbek Holbutayevich** – доктор философии педагогических наук (*PhD*)

### THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:

**Egamberdiyeva Nodira Melibayevna**

(*Editor-in-Chief*) – Doctor of Pedagogical sciences, Professor.

### MEMBERS OF THE EDITING BOARD:

**Narbayeva Tanzila Kamalovna** – Doctor of Sociological sciences, Professor.

**Saidova Galina Karimovna** – Doctor of Economic sciences, Professor.

**Shoumarov Ghayrat Bakhrayevich** – Doctor of Psychological sciences, Professor.

**Abduramanov Khamid Khudaybergenovich** (*Deputy Editor-in-Chief*) – Doctor of Economic sciences, Professor.

**Bekmuradov Adkham Sharipovich** – Doctor of Economic sciences, Professor.

**Marufova Gulnora Makhmudovna** – Senator, Member of the Senate Committee of the Oly Majlis on Women and Gender Equality.

**Musurmanova Aynisa Musurmanovna** – Doctor of Pedagogical sciences, Professor.

**Rakhimova Nigina Khayrullayevna** – Doctor of Economic sciences, Professor.

**Saidov Akmal Kholmatovich** – Doctor of Juridical sciences, Professor.

**Yakubjanova Dilobar Batirovna** – Doctor of Pedagogical sciences, Associate Professor.

**Tashmukhammedova Diloram Ghafurjanovna** – Candidate of Medical sciences.

**Umirzakov Bakhodir Khamidovich** – Doctor of Economic sciences, Professor.

**Ziyayev Azamat Khamidovich** – Doctor of Historical sciences, Professor.

**Abdusamatov Khasanboy Usmonjon ugli** – Doctor of Psychological Sciences.

**Torakulov Ulugbek Holbutayevich** – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (*PhD*)

### XALQARO TAHIR HAY'ATI:

**Doktor Rashmini Koparkar,**

*Rossiya va Markaziy Osiyon*

*o'rganish markazi dotsenti*

*Xalqaro tadqiqotlar maktabi,*

*Javoharlal Neru universiteti,*

*Nyu-Dehli, Hindiston*

**Artamonova Yekaterina Iosifovna,**

*Chelyabinsk davlat madaniyat*

*instituti,*

*pedagogika fanlari doktori, professor*

**Doktor Priti Kesavan,**

*Texnologiya fakulteti boshlig'i,*

*London biznes va moliya maktabi,*

*Singapur*

### МЕЖДУНАРОДНАЯ

### РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

**Доктор Рашмини Копаркар,**

*Доцент Центра исследований*

*России и Центральной Азии,*

*Школа международных*

*исследований,*

*Университет Джавахарлала Неру,*

*Нью-Дели, Индия*

**Артамонова Екатерина**

**Iosifovna,**

*Челябинский государственный*

*институт культуры,*

*доктор педагогических наук,*

*профессор*

**Доктор Прити Кесаван,**

*Руководитель Технологического*

*факультета*

*Лондонская школа бизнеса и*

*финансов, Сингапур*

### INTERNATIONAL EDITORIAL

### BOARD:

**Dr. Rashmini Koparkar**

*Assistant Professor*

*Centre for Russian and Central Asian*

*Studies*

*School of International Studies*

*Jawaharlal Nehru University*

*New Delhi, India*

**Artamonova Yekaterina Iosifovna**

*Chelyabinsk State Institute of Culture*

*Doctor of Pedagogical Sciences,*

*Professor*

**Dr. Preethi Kesavan**

*Head, School of Technology*

*London School of Business and*

*Finance, Singapore*

*MENEJMENT*

<b>Abdullajanova D.S.</b> Kadrlar zaxirasini shakllantirishda gender tenglikni ta'minlashning ijtimoiy-psixologik asoslari .....	4
--	---

*SOTSILOGIYA*

<b>Saipova M.</b> Migratsiya jarayonining globallashuvi: ijobiy va salbiy oqibatlar .....	10
<b>Xonturayev B.</b> Gender institutlari bo'yicha ilmiy-nazariy qarashlar va ularning ijtimoiy-iqtisodiy asoslari .....	16
<b>Йулдошева У.</b> Гендерные аспекты развития социального предпринимательства в Узбекистане .....	25
<b>Hashimova G.I.</b> Harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy himoya qilishning huquqiy asoslari va kafolatlari .....	32

*MAHALLA VA HAYOT*

<b>Isamutdinov R.R.</b> Mahallaning ma'naviy xavfsizlikni ta'minlashdagi ahamiyati .....	37
--	----

*OILA VA JAMIYAT*

<b>Abdiraimova Sh.A.</b> Yosh oilalarda ajralishlarning oldini olish yo'llari.....	44
<b>Rahimova M.</b> Yosh kelinlarning oilaviy hayotga moslashishi .....	49
<b>Dovranova O.D.</b> Yangi taraqqiyot bosqichida oilaviy munosabatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy negizlarini shakllantirish.....	53
<b>Mahkamov U.A.</b> So'z va fikr erkinligini ta'minlashda dialog muloqot vositasi sifatida.....	58

*PSIXOLOGIYA*

<b>Рахимова И.И., Каримова Г.О.</b> Психологическая диагностика социальной адаптивности студентов с нарушением слуха .....	64
<b>Абидова З.А.</b> Влияние семейного положения личности на уровень его толерантности .....	69
<b>Ishonkulova N.I.</b> Oilaviy munosabatlarda destruktiv nizolar namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari .....	75
<b>Raxmonova Z.N.</b> Ijtimoiy-individual qadriyatlar va emotsional intellekt xususiyatlari.....	80

*PEDAGOGIKA*

<b>Ortikov U.X.</b> The socio-educational model in second language acquisition.....	86
<b>Yulchiyeva D.X.</b> Oila barqarorligini ta'minlashda olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat .....	92
<b>Аблакулов Ш.Д.</b> Формирование профессиональных креативных компетенций у будущих педагогов-психологов .....	98
<b>Mirhamidova M.</b> Yapon xalqida tarbiyaning pedagogik asoslari .....	104
<b>Safoyeva R.J.</b> Noto'liq oila farzandlarining ijtimoiylashuvi xususiyatlari.....	109
<b>Yakubov O.T.</b> Bolaning ijtimoiylashuvida oilaning o'ziga xos xususiyatlari .....	114

*TARIX*

<b>Sharipova N.A.</b> XX asrning 40–90-yillarida O'zbekiston ta'lim tizimida gender tenglik masalalari tarixi.....	118
--	-----



**Mahkamov Ulugbek Abdugapporovich,**  
O'zbekiston Milliy universiteti “Falsafa va  
ma'naviyat asoslari” kafedrasi dotsenti, PhD  
e-mail: [ulke01659@mail.ru](mailto:ulke01659@mail.ru)

## SO'Z VA FIKR ERKINLIGINI TA'MINLASHDA DIALOG MULOQOT VOSITASI SIFATIDA

**Annotatsiya.** Demokratik jarayonlarning sifati va samarasini oshirish maqsadida mamalakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni “shaxs – millat – fuqaro – davlat o’rtasidagi muloqot” tizimida muloqot shakllantirib borishning ahamiyati falsafiy jihatdan ochib berilgan.

**Tayanch so'zlar:** fuqarolik jamiyatini qurish, muloqot, tafakkur uslubi, axborot asri, matbuot erkinligi.

**Аннотация.** В целях повышения качества и эффективности демократических процессов, философски раскрыта важность формирования диалога, реализуемых в нашей стране социально-экономических реформ в системе диалога «личность – нация – гражданин – государство».

**Ключевые слова:** построение гражданского общества, диалог, образ мышления, информационный век, свобода печати.

**Annotation.** In order to improve the quality and efficiency of democratic processes, the importance of forming a dialogue and socio-economic reforms implemented in our country in the system of dialogue “individual – nation – citizen – state” is philosophically revealed.

**Keywords:** building a civil society, dialogue, way of thinking, information age, freedom of the press.

**Kirish.** Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik jarayonlarning sifati, samarasi hamda inson huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini himoya qilish maqsadida insonlarning munosib hayot darajasini ta'minlashda davlat organlarining roli va mas'uliyatini kuchaytirish, aholi bilan ochiq muloqotni tashkil etish va ularning murojaatlari bilan ishslashning yangi samarali mexanizmlari va usullarini ishlab chiqish, fuqarolarning ijtimoiy muammolarini o‘z vaqtida hal etish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda, ijrosini ta'minlashga harakat qilinmoqda. “Inson manfaatlari har narsadan ulug’” degan ezgu g‘oyani hayotga izchil joriy etish

maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tashabbusi bilan 2017-yil “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”<sup>1</sup> deb e'lon qilingani ham muloqotning jamiyat taraqqiyotida naqadar muhim o'rinn egallashidan dalolat beradi.

Demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish umumjahon sivilizatsiyasi yutuqlariga,

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 17 декабрдаги “Халқ билан мулокот ва инсон манбаатлари иили” Давлат дастурини ишлаб чиқиш ва амалга оширишнинг ташкилий чора-тадбирлари тўғрисида” Ф-4760-сон фармойиши (Ўзбекистон Республикаси конун хужжатлари тўплами, 2017 й, 8-сон, 119-модда) // <https://lex.uz/docs/3121798>

tajribalariga, an'analariga tayanishni taqozo etmoqda.

**Maqsad va uni asoslash.** Mustaqillik sharofati bilan shakllangan yangi siyosiy tafakkur va falsafiy dunyoqarash insoniyat tarixiga urushlar, xalq qo'zg'olonlari va inqiloblar tarixi sifatida emas, balki g'oyalar tarixi, insoniyatning ma'naviy – intellektual rivojlanish tarixi sifatida qarashni, ziylilar qatlaming jamiyat rivojidagi o'rni va rolini yangicha tushunishni talab etmoqda. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A. Karimov o'zining "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" va boshqa shu kabi asarlarida har qanday siyosiy zug'um va mafkuraviy tazyqlardan ozod bo'lishning nazariy va amaliy ahamiyatini alohida ta'kidlagan.

Sobiq sovet jamiyatining umumiy tanazzulga yuz tutishi, mustaqillik yillarda orttigan tajribamiz ham ziylilar qatlaming jamiyatdagi mavqeyini yuksaltirmay turib, ta'lum-tarbiya sohasidagi islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirmay turib, na iqtisodiy farovonlikka va na ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka erishib bo'lmasligini isbotladi.

B.Karimov o'zining ilmiy tadqiqot ishlarida turkiyzabon xalqlarning muloqoti umumiy madaniy aloqalarning davomiyligini ta'minlash uchun nazariy asos bo'ladi deb hisoblaydi<sup>2</sup>. Muloqot hamma zamонларда ham xalqning dono rahnamosi, taraqqiyot sari yetakchisi va yo'lboshchisi bo'lib kelgan. Insoniyat tarixida chuqur iz qoldirgan ulug' allomalar, harbiy sarkardalar, siyosat, sanoat, din arboblari xalq orasidan yetishib chiqqan peshqadam vakillari edilar.

Muloqotga asoslangan tafakkur uslubi xalqqa, jamiyat odamlarini ilg'or g'oya atrofida jipslashtiruvchi, xalqni buniyodkorlik ishlariga safarbar etuvchi ijtimoiy jarayon bo'lib kelgan. Turli tarixiy davrlarda jamiyatning ma'naviy-intellektual hayotida goh din, goh fan, goh sanoat, goh siyosat arboblari yetakchilik qilib kelgan. Masalan, ushbu muloqotga asoslangan tafakkur omillari Islomning fikrlovchi doiralarida kalom bahslarining paydo bo'lishiga zamin yaratgan. Ya'ni munozaraga kirishishning, "muloqotlar to'qnashuvi"ning o'ziga xos tartib-qoidalari bo'lgan. Bunday "hujum-himoya" ko'rinishidagi bahs usuli, yahudiylar,

xristianlar, mazdakiylar, xurramdinlar va moniylar o'rtaida qadimdan davom etib kelayotgan muloqotining eng ommaviysi bo'lgan. Islomda "Kalom" yo'nalishiga asos bo'lgan bunday bahslarni olib boruvchilarga nisbatan "mutakallimin", ya'ni "so'zlashuvchilar" atamasi qo'llanilgani tarixdan ma'lum. Bu bahslar turli guruhlarning jizzaki va chapani olishuvlari, ba'zan qurolli to'qnashuvi shaklidan madaniy munozaraga, ko'pgina hollarda yozma bahslar (risolalar) shakliga o'tishi, shariat himoyasiga xizmat qilishi lozim bo'lgan. Kalom, shu tariqa, o'z taraqqiyoti davomida shariat ilmining tarkibiy qismiga aylangan. Bunda Abu al-Hasan Ash'ariyning xizmati alohida diqqatga sazovordir. Shar'iy asosdagи "Kalom" yo'nalishi talqinicha, uning va Abu Mansur Moturidiyning ta'limotlaridan boshlanadi. Islomda ularga zid ta'limotni targ'ib etgan barcha teologik va falsafiy-mantiqiy yo'nalishdagi qarashlar bid'at deb e'lon qilingan. Ibn Xaldunning: "Kalom boryo'g'i bid'atlarga raddiya sifatida paydo bo'lgan, u shunday ilmki, mantiqiy dalillarga asoslangan bahs yuritish orqali din asoslarini himoya qiladi va dindan adashgan bid'atchilarni qoralaydi", deb bergen ta'rifi kalomning ash'ariy va moturidiylardan boshlanganini bildirgan. Islomning ilmiy va ma'rifiy doiralarida shariat to'g'risidagi ilm dastlabki shakllangan shoxobcha bo'lsa, muhaddislik (hadisshunoslik), tarix va adabiyot, ko'p hollarda, shariat va fiqhga ilova edi. Ularning hammasi Ash'ariy va Moturidiydan so'ng "Kalom"da o'z ifodasini topgan. Kalom falsafada dialogik tafakkur usulini qo'llagani bilan bir qatorda, mantiqiy mazmun va islom tamoyillarga muvofiq hujjalarni asosida ishlab chiqiladi.

**Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.** Hozirgi davrda har qanday diplomli mutaxassisni ham muloqotda faol shaxs deb bo'lmaydi, albatta. Haqiqiy muloqot sohasi Vatan, xalq va jamiyat tarixini, ajodolarimiz o'tmishini xolisona ilmiy asosda bilishdan boshlanadi. Xalq tarixiga, mamlakat kechmishiga biryoqlama qarash, ya'ni o'tmishni butunlay qora bo'yoqlarda tasvirlash ham, uni faqat yutuqlardan iborat qilib ko'rsatish ham ilmiy obyektivlik, xolislik tamoyiliga ziddir. Tarixda yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklardan kelib chiqib, uning sabablari va oqibatlarini xolisona tahlil qilish xalq taqdiri, mamlakat rivoji, tabiiy-geografik muhit va iqlimning ta'sirini to'g'ri belgilash,

<sup>2</sup> Каримов Б. Концепция эманации и проблемы развития современной научной картины мира // – Тошкент: Фалсафа ва хуқук, 2009. – № 1. – Б. 110-111.

tarix saboqlaridan tegishli xulosalar chiqarish, vatanparvar, taraqqiyat parvar va xalqparvar ziyorolar avlodini tarbiyalashda muloqot muhim ahamiyatga egadir.

Dialog orqali tushunish natijasida fikrlar majmuasi erkin ixtiyoriy harakat qiladi, ya’ni u qat’iy qonun-qoidalarga bo‘ysunmaydi, balki tadqiqot obyektning o‘ziga xos xususiyati va maqsadiga ko‘ra sharoitga mos usullarni tanlaydi. Mazkur fikrlash tarzi obyektning ichki mazmunini o‘rganishga yo‘naltirilgan bo‘lib, bunda obyekt vaziyat va zaruratga qarab induktiv va deduktiv yondashuvlar, ya’ni butun va qism dialektikasi vositasida amal qiladi.

Insonning rivojlanishi va ijtimoiylashuvini, individning esa shaxs bo‘lib shakllanishini va jamiyat bilan munosabatini muloqotsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Dialog olib borish ham o‘ziga xos ehtiyoj. Polshalik psixolog Y.Melibruda aytganidek, shaxslararo munosabatlar biz uchun havodek ahamiyatga egadir. Go‘daklik va o‘smirlik davrlarida muloqot yetakchi faoliyatga, ya’ni yangi psixologik xususiyatlarning shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi faoliyat sifatida gavdalaniadi.

Shuning uchun ham muloqot, uning jihatni, tabiatini, texnikasi va strategiyasi masalalari bilan shug‘ullanuvchi fanlarning ham jamiyatdagagi o‘rnini va salohiyati keskin oshdi. Muloqot hamkorlikda faoliyat ko‘rsatuvchilar o‘rtasida axborot ayirboshlanishini o‘z ichiga olib, bunday ma’lumot almashinuvni muloqotning kommunikativ jihatni sifatida ta’riflanadi. Insonlar muloqotga kirishar ekan, uning eng muhim vositalaridan biri sifatida tilga murojaat qiladilar.

Muloqot olib borish o‘z yo‘liga, lekin muloqotning ahamiyati uning mazmun-mohiyati, u nimaga xizmat qilishi haqidagi asosiy masala hisoblanadi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘nggina biz so‘z va fikr erkinligiga ega bo‘ldik. Zero, bu kabi jihatlarga ega shaxsgina erkin muloqot olib borish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bugungi kunda jahoning u yoki bu burchagida ro‘y berayotgan voqeal-hodisalar haqida to‘g‘ridan-to‘g‘ri axborot olish imkoniyatiga egamiz. Demak, XXI asr – axborot asri. Unda millatlararo munosabatlar ham yangidan yangi yo‘nalishlarda o‘zining ifodasini topadi. Ammo axborot asrida muloqot olib borish erkinligi sabab turli-tuman bo‘sh mavzularni ko‘tarib chiqaverish ham yaramaydi. Qonun ustuvorligini

ta’minalash, unga amal qilish talab etiladi. Biroq so‘z va fikr erkinligini hurmat qilmaydigan, uning ishiga muntazam ravishda aralashib, nazorat qilib turadigan, reyting jadvalining so‘nggi ellik o‘rnidan joy olgan nodemokratik davlatlar orasida iqtisodiy jihatdan ancha baquvvat mamlakatlar ham borligi ajablanarli hol. Chunki ko‘pchilik so‘z va fikr erkin bo‘lishi uchun, avvalo, iqtisod baquvvat, moliyaviy masalalar esa bartaraf etilgan bo‘lishi lozim, deb o‘ylaydi. Qonundan chetga og‘ish qanchalik salbiy oqibatlarga olib kelayotganini dunyoning turli davlatlarida demokratiya niqobi ostida davlat ravnqaqiga, yurt parokandaligiga olib kelayotgan mitinglar, uchrashuvlar tashkil etish asnosida janjallar, urushlarning kelib chiqayotganini misol qilib ko‘rsatsa bo‘ladi.

Shuni ham alohida e’tirof etish lozimki, so‘z va fikr erkinligini ta’minalashning demokratik jamiyatdagagi asosiy ahamiyati jamoatchilik fikriga ta’sir ko‘rsatish orqali nazoratni amalga oshirishdan iborat. Shu o‘rinda Devid Uebsterning quyidagi fikrlarini qayd etish joiz: “Matbuot erkinligi insonlarning farosatsiz, qo‘pol, qabih, soxta, xatarli, g‘ashga teguvchi, nafratga to‘la ma’lumotlarni nashr etish va eshittirishda erkin bo‘lishini ham nazarda tutadi. Zero, bu – ozodlik evaziga to‘lanadigan haq. Milliy ayirmachilikni targ‘ib etish yoki millat g‘ururiga tegish, ijtimoiy tartibni saqlash va atrof-muhitni muhofazalash qonunlarini buzish kabi xato va nuqsonlar ozodlikni xavf ostiga qo‘yadi va ularga qarshi qaratilgan chora-tadbirlarni aniq belgilash oson ish emasligini anglatadi”<sup>3</sup>. Shuning uchun ham tom ma’nodagi mutlaq nazoratsiz ommaviy axborot vositalari mayjud emas va bo‘lmaydi ham. Shu nuqtayi nazardan, ommaviy axborot vositalari faoliyatining muvozanatini ta’minalash, o‘z vaqtida ozod va erkin ommaviy axborot vositalarining salbiy ta’sirlarini bartaraf etishga fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma’rifat bilan kurashish natijasidagina erishish mumkin. Bu, avvalambor, rivojlangan qonunchilik asosidir. Misol uchun, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida har kim fikrlash, so‘z va e’tiqod erkinligi huquqiga ega ekanligi mustahamkamlab qo‘yilgan. Har kim o‘zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega. Muloqotni keng ommaga yetkazishda ommaviy axborot vositalarining o‘rni beqiyos.

<sup>3</sup> Уэбстер Дэвид. Акулы-людоеды. – Москва: Армада-пресс, 2001. – 352 с.

O‘zbekiston Respublikasida ham muloqot jarayoni ishtiroychilarining bir-biri bilan bog‘lashga xizmat qiladigan ushbu soha faoliyati ham qonun normalari asosida nazorat qilinadi. Maqsad – ular muloqot jarayonida buzg‘unchilikka, vayronkorlikka, yurt parokandaligiga xizmat qilmasin. Ushbu qoidani takomillashtirish maqsadida “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi, “Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘risida”gi, “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi, “Jurnalistlik faoliyatni himoya qilish to‘g‘risida”gi, “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi, “Telekommunikatsiyalar to‘g‘risida”gi, “Pochta aloqasi to‘g‘risida”gi, “Radiochastota spektri to‘g‘risida”gi, “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi, “Reklama to‘g‘risida”gi va shu kabi 20 dan ortiq qonunlar qabul qilindi.

Ommaviy axborot vositalari faoliyatini tartibga soladigan maxsus qonunlar haqida fikr bildirar ekanmiz, bu huquqiy hujjatlarning yaxlit tizimini yaratishini, sohadagi munosabatlarning huquqiy aniqligini ta‘minlaydi, shuningdek, ommaviy axborot vositalarining amalda erkinligini kafolatlashga xizmat qiladi. Bu borada Avstriya, Germaniya va Shvesiya singari davlatlar amaliyoti bilan tanishganimizda, ushbu mamlakatlar konstitutsiyalarida OAV erkinligiga alohida e‘tibor qaratilgani, matbuot to‘g‘risida maxsus qonun hujjatlari mavjudligiga amin bo‘ldik. Ammo ayrim mamlakatlarda yaxlit qonun hujjatlarining mavjud emasligi ommaviy axborot vositalari faoliyatini sezilarli darajada qiyinlashtiradi.

O‘zbekistonda so‘z erkinligini, fikrlar xilmalligini, odamlar o‘z qarashlarini ochiq-oshkora ifoda etishini amalda ta‘minlash uchun barcha shart-sharoit yaratilgan. Mamlakatimizda 1500 dan ziyod ommaviy axborot vositasi erkin faoliyat yuritayotgani va izchil rivojlanib borayotgani buning yaqqol tasdig‘idir. Ularning 60 foizi nodavlat ommaviy axborot vositasi ekani, ayniqsa, e‘tiborlidir. Birgina so‘nggi uch yil ichida mamlakatimizda “Madaniyat va Marifat”, “Dunyo bo‘ylab”, “Navo”, “Oilaviy”, “Diyor”, “Bolajon”, “Mahalla”, “UzHD” singari davlat telekanallari, “Milliy TV”, “Uzreport TV”, “Sevimli”, “Zo‘rTV” va “MY5” kabi nodavlat telekanallar faoliyati tashkil etildi. Telekanallarning barchasida yurtimizda bo‘layotgan voqealar, dolzarb mavzular, hal etilishi lozim bo‘lgan masalalarning

yechimini topishga yo‘naltirilgan muloqot shaklidagi ko‘rsatuvar olib borilmoqda. Ular fikrlar va qarashlarning muhim jihatlarini o‘zida mujassam etgan bo‘lib, har birida mamlakatda kechayotgan jarayonlarga nisbatan turli munosabat va nuqtayi nazarlar o‘z ifodasini topdi.

Dialogni tashkil etishda internetning ham o‘rnini yuqori. Shuni alohida qayd etish kerakki, O‘zbekistonda veb-saytlar va blogerlarning rasmiy sahifalari ayrim rivojlangan mamlakatlarda bo‘lgani kabi ro‘yxatdan o‘tkazilmaydi. Ammo ular ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organga ommaviy axborot vositasi sifatida ro‘yxatdan o‘tkazishni so‘rab murojaat qilishi mumkin. Bu, tabiiyki, qonunchilikda ommaviy axborot vositalari va jurnalistlar uchun ko‘zda tutilgan imtiyoz, kafolat va imkoniyatlardan to‘laqonli foydalanishga zamin yaratadi. Bugungi kunda mamlakatimiz “uz” domenida 30 mingga yaqin veb-saytlar mavjud bo‘lib, ularning 360 dan ortig‘i internet ommaviy axborot vositasi sifatida faoliyat yuritadi.

Mamlakatimizda veb-saytlardan foydalanish bir holatda, ya’ni veb-sayt egasi, shu jumladan, bloger “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonun talablarini buzib, o‘z veb-saytidan va (yoki) veb-sayt sahifasidan mamlakatning mavjud konstitutsiyaviy tuzumini, hududiy yaxlitligini zo‘rlik bilan o‘zgartirishga da’vat etish, urush, zo‘ravonlik va terrorizmni, diniy ekstremizm, separatizm va fundamentalizm g‘oyalarini targ‘ib qilish, davlat siri bo‘lgan ma’lumotlarni yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirni oshkor etish, milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo‘zg‘atuvchi, shuningdek, fuqarolarning sha’ni va qadr-qimmatiga yoki ishchanlik obro‘siga putur yetkazuvchi, ularning shaxsiy hayotiga aralashish bilan bog‘liq axborotni tarqatish va boshqalar uchun foydalanilsagina cheklanishi mumkin.

Internetdan foydalanish imkoniyatini cheklash dunyoning juda ko‘plab mamlakatlari, shu jumladan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari qonunchiligidagi ham ko‘zda tutilgan. Masalan, Fransiya 2000-yilda Yevropa Ittifoqida birinchilardan bo‘lib, identifikasiya qilinmagan shaxslar uchun xosting bergani uchun provayderlarga nisbatan jinoiy javobgarlik joriy qildi. Bunda mahalliy serverlarda joylashgan barcha saytlarning mualliflari o‘zi haqida to‘liq va ishonchli axborot taqdim qilishi talab etiladi, aks holda, qonunda olti oygacha

qamoq jazosi ko‘zda tutilgan. Bundan tashqari, nafaqat ma’lumotlarni tekshirmagan provayderlarga nisbatan, balki ayni paytda foydalanuvchilarga nisbatan ham javobgarlik ko‘zda tutilgan.

Internetda voyaga yetmaganlarni himoya qilish maqsadida noqonuniy va zararli mazmundagi veb-resurslar (kontent) aniq kuzatib boriladi. Masalan, Germaniyaning Yoshlarni himoya qilish to‘g‘risidagi qonunida internetdagি noqonuniy va zararli materiallar (kontent)ga oid munosabatlar, shuningdek, televide niye hamda internetda yoshlarni himoya qilish masalalari tartibga solingan. Qonun voyaga yetmaganlarni himoya qilishning uchta darajasini ko‘zda tutadi: “mutlaq noqonuniy kontent”, “noqonuniy kontent” va “bolalar va o‘smirlar rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan kontent”. Yil davomida ushbu yo‘nalishda ikki martadan ko‘p qonunchilikni buzgan davriy nashrlardan uch oydan o‘n ikki oyga qadar yoshlar foydalanishi taqiqlanadi, ya’ni kiosk va kutubxonalarda sotilmaydi.

Insoniyat doimo mustaqillik, ozodlik va erkinlikka intilib yashagan. Ijtimoiy munosabatlar shakllariga mos ravishda iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ma’naviy erkinliklar, eng avvalo, fikr erkinligi tarzida namoyon bo‘lgan. Shuning uchun ham boshqa millatlar, davlatlar ustidan hukmronlik qilgan mamlakatlar siyosati hamisha bosib olingan xalqlarni tafakkur qulligiga mahkum etishga qaratilgan. Insonning muayyan mafkuraga, siyosatga fikriy qaramligi mustamlakachilik siyosatining eng mash’um ko‘rinishidir. Chunki fikr qaramligi insonni o‘z-o‘zini anglashdan mahrum qilib, undagi ijtimoiy mas’uliyat hissini so‘ndirishga, siyosiy voqelikka nisbatan loqaydlik kayfiyatining kuchayishiga olib keladi va ayni paytda boshqacha qarashlar bilan hisoblashmaydigan mutaassiblar, manqurtlar paydo bo‘lishiga zamin yaratadi. Tafakkur qulligidan ozod bo‘lib, fikrlar xilma-xilligiga, pluralizmga erishish esa taraqqiyotning oqilona yo‘lini tanlash imkoniyatini beradi. Shuning uchun ham islohotlarning dastlabki bosqichidanoq kishilarning tafakkurini uyg‘otish, tashabbuskorligini, siyosiy faolligini oshirish ma’naviy o‘zgarishlarning markaziga qo‘yildi. Chunki sobiq mustabid tuzum, bir tomon dan – tafakkur qaramligini rag‘batlantiruvchi, ikkinchi tomon dan esa erkin fikrlovchi kishilarni jazolash, jismonan yo‘q qilishning mukammal mafkuraviy mexanizmini

yaratgan edi. Shuning oqibatida kishilar ongida saqlanib qolgan yuqoridaн ko‘rsatma, buyruq va qarorlar kutish kabi fikr qaramligi ko‘rinishlari islohotlarni amalga oshirishdagi qiyinchiliklarga sabab bo‘ldi. Demokratik tamoyillarga ko‘ra rivojlanayotgan mamlakatlarda fikrlar erkinligi jamiyat taraqqiyotining omili bo‘lganligini tarixiy tajriba isbotlamoqda. “Shu bilan birga, tarix saboqlari shundan dalolat beradiki, o‘z erkin fikrini ifoda etadigan shaxs, guruh yoki ijtimoiy qatlam, avvalo, o‘zining aniq ravshan, asosli qarashlariga ega bo‘lishi, o‘z nuqtayi nazarining oqibati uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishi, bahs-munozara madaniyati talablariga amal qilishi lozim. Ya’ni fikrlar rang-barangligi va qarashlar xilma-xilligi muayyan jamiyatning milliy manfaatlariga, umumbashariy qadriyatlariga, qonun normalariga, axloqiy mezonlariga zid bo‘lmasligi zarur”<sup>4</sup>.

O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov ham o‘z vaqtida “Eng dahshatlisi – fikr qaramligi, tafakkur qulligining hukmronligi qanday oqibatlarga olib keladi?”<sup>4</sup> degan savolni ko‘ndalang qo‘ygan. Zero, fikr shunchalik o‘zgaruvchanki, muayyan tashqi ta’sir natijasida qotib qolishi, qullikka, qaramlikka tushib qolishi mumkin.

O‘zbekiston – boy tarixiy meros, yuksak ma’naviy qadriyatlarga boy yurt. Tarixiy merosni tahlil qilish va qadriyatlarni talqin qilish tobora globallashib, integrallashib borayotgan bugungi dunyoda millatimiz kelajagining barqaror rivojlanishini ta’minlovchi asoslardan biridir. Zero, dunyoda bo‘sh joy bo‘lmaydi, paydo bo‘ldimi, kimdir bu joyni to‘ldirishga harakat qiladi. Agar yoshlarimiz tafakkurini, ularning ma’naviy dunyosini tarixiy meros, milliy ma’naviyat bilan to‘ldirmas ekanmiz, o‘zga kuchlar muloqot bilan bunga erishishi tabiiy. Insonni yashashga undaydigan kuch faqat tafakkur emas, balki uning imon-e’tiqodining borligida hamdir. Chunki faqat tafakkur orqali aniq hisob-kitoblar bilan yashash insonni tushkunlikka olib boradi. Tafakkur har qanday jarayonning boshi va oxiri borligiga ishora qiladi. Imon-e’tiqod esa, tafakkurning

<sup>4</sup> Каримов И.А. Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан курамиз // Жамиятимиз мафкураси халкни халқ, миллатни миллат килишга хизмат этсин. Тафаккур журнали Бош мухаррирининг саволларига жавоблар. “Тафаккур” журнали, 1998 йил 2-сон. – Тошкент: Ўзбекистон, 1999. – 81 б.

mahsulini qalb bilan his qilish imkonini beradi. Shuning uchun ham davlatimiz kelajagi uchun kuchli jamiyatning asosi bo‘lgan kuchli shaxslarni tarbiyalashda ularning ham intellektual salohiyatini, ham ma’naviyatini takomillashtirib borish zarur. Bu vazifani amalga oshirishda ijtimoiy jarayonlarni muloqot usuli bilan tahlil etish o‘z samarasini beradi. Chunki muloqot chuqur mushohada qilish orqali loqaydlik, beparvolik kabi illatlarning ildiz olishiga yo‘l qo‘ymaydi, insonni doim ziyrak tushunuvchi mavjudot bo‘lib qolishini ta’minlaydi. Voqeahodisalarni to‘g‘ri tushunish esa ongli faoliyatning asosidir.

**Yakuniy qism.** Xullas, O‘zbekistonning taraqqiyot yo‘li xalqimizning kuchli va kuchsiz, ijobiy va salbiy tomonlarini har tomonlama chuqur bilish va ulardan tegishli xulosalar chiqarishni taqozo etadi va ular quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

– ijtimoiy hodisalarni tushunish insonning

jamiyatdagi o‘rnini, orzu-maqsadlarini belgilashga ta’sir qilib, bevosita uning dunyoqarashini kengaytirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, unga aholi gavjum bo‘lgan joylarda fikrini bildirish, o‘zini yo‘qtib qo‘ymaslik imkonini beradi;

– jamiyat taraqqiyoti, mafkuraviy poligonlar xurujii avj olgan bir davrda o‘z fikrini himoya qolish imkonini beradi;

– muloqot jarayonida qiyosiy-tahliliy, tanqidiy mulohaza qobiliyati namoyon bo‘lishini hisobga olib, uni mafkuraviy bilimni mustahkamlash hamda milliy g‘oya targ‘ibotida asosiy yo‘nalishlardan biri bo‘la olishini qayd etadi;

– ajdodlarimiz merosining abadiyligini ta’minalash hamda zamonaviy taraqqiyot bilan teng qadam tashlash uchun yoshlarda o‘ziga ishonch, millat va davlatga nisbatan faxr va g‘urur tuyg‘ularini mustahkamlashga xizmat qiluvchi tarixiylik va falsafiylik mazmunini kuchaytiradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 17-dekabrdagi “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” Davlat dasturini ishlab chiqish va amalga oshirishning tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida” F-4760-son farmoyishi (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y, 8-son, 119-modda) // <https://lex.uz/docs/3121798>
2. Каримов Б. Концепция эманации и проблемы развития современной научной картины мира // – Тошкент: Фалсафа ва хукуқ, 2009. – № 1. – Б. 110-111.
3. Уэбстер Дэвид. Акулы-людоеды. – Москва: Армада-пресс, 2001. – 352 с.
4. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz // Jamiyatimiz mafkurasi xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin. Tafakkur jurnali Bosh muharririning savollariga javoblar. “Tafakkur” jurnali, 1998-yil 2-son. – Toshkent: O‘zbekiston, 1999. – 81 b.

**“OILA VA XOTIN-QIZLAR” ILMUY-TADQIQOT INSTITUTI  
НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ «СЕМЬИ И ЖЕНЩИН»  
“FAMILY AND WOMEN” RESEARCH INSTITUTE**

## **MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA**

*Общество, гендер и семья в Центральной Азии  
Society, Gender and Family in Central Asia*

**x a l q a r o i l m i y j u r n a l i**

*международный научный журнал  
international academic journal*

**2024/1 (10)**

**DOI: 26739/2118-9998**

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2021-yil 18-iyundagi 0996-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma”si olingan.

*Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar RO ‘YXATI (2019)ga pedagogika, psixologiya, tarix va falsafa fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari himoyasi uchun ilmiy maqolalar e’lon qilinishi mumkin bo‘lgan jurnal sifatida ro‘yxatga olingan.*

**MUASSIS:**

“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti

**JURNAL TAHRIRIYATI:**

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**

Mas’ul kotib: **Mavlonov B.**

Muharrirlar: **Yunusov U., Nomozova O‘.,**

**Razzakova N., Sobirova E.,**

**Jabborov U.**

Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**

Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**

Web dizaynerlar: **Yakubov O., Alimova Z.**

*Jurnaldagи materiallardan foydalانilganda mualliflik huquqini e‘tiborga olgan holda jurnalga havola berilishi shart.*

*Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.*



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.

Bosishga ruxsat etildi: 23.03.2024.

“Times New Roman” garniturasi. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8

Nashriyot bosma tabog‘i 7,2.

100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,

M.Ismoiliy ko‘chasi 1-G uy.